XALQ DEPUTATLARI XONOBOD SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

Xonobod shahar, Umarshayx Mirzo ko‘chasi 2-uy, Telefon 734-44-41 Email: khanabad@umail.uz

2024 - yil 15 - yanvar VI-53-5-1-30-K/24 Xonobod shahar hokimligi

Xonobod shahri bo‘yicha qishloq xojaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-va 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-son Farmonining 1-bandiga muvofiq Xonobod shahar moliya bo‘limi va shahar davlat soliq inspeksiyasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” bo‘yicha kiritgan takliflarini muhokama etib, Xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hamda Davlat soliq qo‘mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llash to‘g‘risida”gi 06/04-01-32/2248 va 19/10-68220-sonli qo‘shma xatida quyidagilar;

- Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2024 yilda 1,13 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

- Xonobod shahar uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 gektar uchun 37 400,0 mln.s o‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 315,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

- Kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar” miqdorlarini belgilash bo‘yicha shahar Moliya bo‘limining hamda shahar Davlat soliq inspeksiyasining taklifi ma'qullansin.

3. Xonobod shaxar hududida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdorlari yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga hamda jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Bunda, Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2024 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

- Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni kiritish huquqi byerilganligi alohida ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Xalq deputatlari shahar Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni joriy yil uchun mahalliy byudjet daromadlari prognozidan hamda shahrimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo‘llashlari tavsiya etilsin.

5. Xonobod shahar Moliya bo‘limi (N.Xusanjonov) Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Qosimova) yer solig‘i bo‘yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to‘lovchilarga soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Shahar hokimligi matbuot kotibi (Jabaraliyev) mazkur qarorni matbuotda e‘lon qilinishi hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

7. Mazkur qaror bilan belgilangan soliq stavkalari 2024 yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror kuchga kirishi bilan Xalq deputatlari Xonobod shahar Kengashining 2023 - yil 17 - yanvardagi VI-43-5-1-30-K/23 sonli “Xonobod shahri bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni tasdiqlash haqida”giqarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (R.Xudaybyerdiev) hamda shahar hokimining birinchi o'rinbosari E.Abduraxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **M.Tajibayev**

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-53-5-1-30-K/24-son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	1 gektar uchun soliq stavkasi (ming so’m)
1	A.Fitrat MFY	0,88	32 912 .0
2	Anxor MFY	0,97	36 278. 0
3	Bunyodkor MFY	0,87	32 538 .0
4	Istiqlol MFY	0,87	32 538 .0
5	Kampirovot MFY	0,68	25 432 .0
6	Mexmonobod MFY	0,87	32 538 .0
7	Mustakillik MFY	0,78	29 172 .0
8	Navoiy MFY	0,68	25 432. 0
9	Teyt MFY	0,78	29 172 .0
10	Fozilmon MFY	0,88	32 912 .0
11	Xidirsha MFY	0,78	29 172 .0
12	Xonobod MFY	0,87	32 538 .0
13	Yuksalish MFY	0,87	32 538 .0
14	Yangi xayot MFY	0,87	32 538 .0
15	Xontog’	0,87	32 538 .0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig’i stavkasini mahalla fuqarolar yig’inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko’paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Solik kodeksiga muvofiq bazaviy stavka	37 400.0

Xalq deputatlari Xonobod shahar
Kengashining
2024-yil 15-yanvardagi
VI-53-5-1-30-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	1 kv.m uchun soliq stavkasi (so’mda)
1	A.Fitrat MFY	0,96	302,59
2	Anxor MFY	0,97	305,74
3	Bunyodkor MFY	0,84	264,77
4	Istiqlol MFY	0,97	305,74
5	Kampirrovot MFY	0,75	236,4
6	Mexmonobod MFY	0,87	274,22
7	Mustakillik MFY	0,78	245,86
8	Navoiy MFY	0,87	274,22
9	Fozilmon MFY	0,78	245,86
10	Xidirsha MFY	0,90	283,7
12	Xonobod MFY	0,78	245,86
13	Yuksalish MFY	0,97	305,74
14	Yangi xayot MFY	0,87	274,22
15	Xontog’ MFY	0,87	274,22

Izoh: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig’i stavkasini mahalla fuqarolar yig’inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko’paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

315.2

Soliq kodeksiga muvofiq bazaviy stavka